# Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

## “Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va iqlim oʻzgarishi” yoʻnalishi

| Loyiha mavzusi | Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija |
|---|---|
| **Orol dengizi qurigan tubida oʻrmon oʻsimliklarini yetishtirishning agrotexnikasini takomillashtirish**<br> | **Tadqiqot shakli:** Amaliy.<br>**Ilmiy tadqiqot natijalari:**<br>- oʻrmon ekinlari yaratish boʻyicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqiladi;<br>- tuproq qatlami turlariga qarab, oʻrmon oʻsimliklarini yaratish texnologiyasi takomillashtiriladi;<br>- tuproqning kimyoviy va granulometrik tarkibi bilan bogʻliq holda qurgʻoqchilikka bardoshli ekosistema tavsiyalari ishlab chiqiladi;<br>- oʻrmon oʻsimliklarini yaratishning agrotexnologiyasini takomillashtirish, tuproqda namlikni saqlash va toʻplashga hamda oʻsimliklarning oʻsish va rivojlanishini ragʻbatlantiruvchi yangi agrotexnika elementlari va preparatlarni joriy qilinadi.<br>- ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida 2030 yilgacha Orol dengizining qurigan tubi 80 foiz qismini yashil oʻsimliklar bilan qoplanishi uchun ilmiy asoslar yaratiladi va joriy qilinadi.<br>**Natijalarni sinovdan oʻtkazish.** Olingan natijalar Ekologiya va iqlim oʻzgarishi milliy qoʻmitasiga qarashli tashkilotlarda sinovdan oʻtkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi toʻgʻrisida **Ekologiya va iqlim oʻzgarishi milliy qoʻmitasi**ning xulosasi olinadi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish.** Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, oʻquv qoʻllanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va *Web of Science/Scopus* maʼlumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi<br>**Izoh.** Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar **Ekologiya va iqlim oʻzgarishi milliy qoʻmitasi**ning qoʻllab-quvvatlash xati mavjud boʻlganida qabul qilinadi. |